

**O‘QUVCHINING KOMPETENSIYAVIY PIRAMIDASI
STUDENT'S COMPETENCY PYRAMID**

Ergasheva Ra'no Axadovna

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi, "Tillarni o'qitish" kafedrası katta o'qituvchisi


Annotatsiya: Maqola o'quvchi kompetensiyalarining pedagogik va psixologik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda kompetentlikning tarkibi, kompetentlikning ta'rifi, mohiyati yoritilgan va o'quvchi kompetensiyaviy piramidasi keltirilgan

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy piramida

Mamlakatimizda, jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan - yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

Globalashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va kompetensiyaga ega kadrlargina ega bo'ladilar.

Ta'lim insonning (ta'lim oluvchining) hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirish bo'lib u jarayon yoki oqibat natija sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning strukturaviy ierarxiyaasida ta'lim va shaxs hayotiy tajribasi rivojlanishini quyidagi ntekstda sxematik ifoda etish mumkin:



O'rganish -bu shaxs tajribasining rivojlanishi bo'lib u o'z navbatida quyidagi unsurlardan tarkib topadi:

1. Individual bilim
2. Malaka
3. Ko'nikmalar
4. Kompetensiya

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

Avvalo kompetensiya tushunchasini izohlab o'tsak. "Kompetensiya" lotincha so'zdan olingan bo'lib, "ma'lum faoliyatga yaroqli, loyiq" degan ma'noni bildiradi. Kompetensiya – bu nafaqat olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi, balki olingan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasidir. Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi Shuning uchun, kompetensiya - ma'lum bir faoliyatni muvafaqqiyatli omilkorlik, mohirlik bilan eplay olishlik, qila olishlik qobiliyatlari bo'lib, u egallangan nazariy va amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar asosida namoyon bo'ladi.


Kompetensiya shaxsning murakab ta'limiy strukturasi bo'lib, u o'zida shaxsning sensor, subsensor va ekstrasensor, sensomotor, ideo dinamik(ideomotor, ideosensor, ideomotiv, ideokognitiv) intellektual, irodaviy, kreativ, emotsional sifatlarini o'zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko'zlangan maqsadga uning o'zgarib boruvchi sharoitida amalga oshuvini ta'minlaydi.

Ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri, bu – o'quvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. Bular:

- ilmiy bilish;
- gnoseologik bilish;
- har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish;
- ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;
- o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o'rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish.
- jamiyat va insonlarga, tabiatga borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat.

Shunday qilib kompetensiya shaxsning yuksak sifatiy xislati bo'lib, uning shakllanishi ta'limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, kompetensiyani quyidagicha sxematik ifoda etish mumkin bo'ladi:



“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Shu nuqtai nazardan kompetentlik “noana’naviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda shaxsning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kompetentlikni o’rgangan olimlarning ishlarida kompetentlikni kengroq va sinchiklab o’rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o’rganib chiqilgan.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta’riflari keltirilgan:

o’qisho’rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik;

bilim va vaziyatlar o’rtasidagi aloqani o’rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo’lini topish (kompetentlik deb aytish uchun birorbir vaziyatda namoyon etiladigan taqdiridagina joiz bo’ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo’lib qolsa ham katta gap).

L.M. Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o’xshash harakatlarni ko’zda tutadigan “bilim, ko’nikma va malakalardan” farqli o’laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. “Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko’rinishidagi bilim va ko’nikmalarning mavjudligi bo’lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiymadaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo’yiladigan hollarda namoyon bo’ladi”, – deb ta’kidlaydi L.M. Dolgova.

V.V. Bashevning ta’kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo’lib, ular shart-sharoitlar o’zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shartsharoitlarga ko’cha olishida namoyon bo’ladi. Qo’llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (matematik, tillar(lingvistika)

bo'yicha, siyosiy va boshqa kompetentliklar). Jamiyatni o'rganish sohasida samarali faoliyat ko'rsatuvchi odam quyidagilarga qodir bo'lishi kerak, ya'ni kompetentli shaxs:

- 1) o'zi tushib qolgan vaziyatni tadqiq eta olishi;
- 2) boshqa odamlar bilan muloqot o'rnatish;
- 3) qarorlar qabul qila olishi;
- 4) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo'yicha individual va jamoaviy harakatlarni tashkillashtira olishi;
- 5) faoliyatning yangi usullarini egallay olishi.


Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo'lib, sub'ektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida ko'proq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish, shuningdek, ularning mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning boshlang'ich tushunchalarni o'rganish asosida tushunchalarning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri tarbiyanuvchilar faolligini ta'minlash va mustaqil faoliyatini tashkil qilish bo'lib, mazkur jarayonlar samaradorligi mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv ta'limiy muhitni hamda o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini ularning mustaqil olgan tushunchalari asosida tashkil etish va mazkur jarayonda ularni ijodiy fikrlashga undash asosida faolligini ta'minlash, shuningdek, ularda refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning o'z kompetentligini rivojlantirish bo'yicha xatti-harakati yo'nalishini (aynan shunday harakat qilishi zarurligini), ma'lum bir vazifani (boshqa vazifani emas, aynan shu vazifani) belgilash zaruriyatini, shuningdek, belgilangan vazifani amalga oshirish vositasi va yo'llarini (aynan shu vosita va yo'lni) belgilovchi sababni maqsad deb aytish mumkin, shu maqsadga ko'ra har bir o'quvchining o'z kompetensiyaviy piramidasi bo'lishi lozim. O'quvchining kompetensiyaviy piramidasini qo'yidagicha tavsiflash mumkin:



Xulq-atvor-axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'linig axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi.

Bilim – bu tarbiyachilar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bilimni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

Malaka- va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Munosabat, hamkorlik-kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqat, madaniyat o'zaro hamkorlikda namoyon bo'ladi.

Ehtiyoj, qiziqish, motiv:

1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turl sabablar yig'indisi;

2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi.

Motivlashtirish esa ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqib kishilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шишов, С.Е. Компетентный подход к образованию как необходимость / С.Е. Шишов // Образование в мире - 2001. - №4, с. 8-10
2. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентного подхода) // Almamater. 2012. № 3. С. 3.
3. Семенов А.Л., Башев В.В., Ленская Е.А., Татур А.О., Цукерман Г.А. Стратегия модернизации содержания общего образования. издания ООО «Мир книги» Москва, 95 с., 2001
4. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: Universitet, 2000.
5. Tolipov U., Usmonboeva. M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.
6. Pranskune E., Grudene S va boshq. Новые роли и компетенции учителя. Литва.- 2011.